



O'zbek adabiyotshunosligida biografik metod taraqqiyoti va unda Naim
Karimovning hissasi

Jonpo'lotova Gulshoda Qobil qizi
Navoiy davlat universiteti doktoranti

Annotasiya: Ushbu maqolada O'zbek adabiyotshunosligida biografik metod spetsifikasi va uning taraqqiyot tamoyillari va unda Naim Karimovning hissasi tadqiq etildi. Mohir munaqqid o'zining uzoq yillik izlanishlari va tadqiqotlari asosida o'zbek adabiyotshunosligida ma'rifiy-biografik roman janriga asos solgani xususida so'z yuritildi va bu turkum romanlarida biografik metodning xossalari ochib berildi. Adabiyotshunos olim Naim Karimov ilmiy merosini o'rganish zaruriyati tahlillar va dalillar asosida ko'rsatildi.

Kalit so'zlar: Ma'rifiy-biografik roman, janr, spetsifika, tamoyil, biografik metod, munaqqid, xossa, ilmiy meros, dalil.

Аннотация: В данной статье исследуются специфика биографического метода в узбекском литературоведении, а также принципы его развития и вклад Наима Каримова. Отмечается, что выдающийся критик на основе многолетних исследований заложил основы жанра просветительско-биографического романа в узбекском литературоведении, а также раскрываются особенности биографического метода в произведениях данного типа. Обосновывается необходимость изучения научного наследия литературоведа Наима Каримова на основе анализа и фактов.

Ключевые слова: просветительско-биографический роман, жанр, специфика, принцип, биографический метод, критик, особенность, научное наследие, факт.

Abstract: This article examines the specificity of the biographical method in Uzbek literary studies, its developmental principles, and the contribution of Naim Karimov. It is noted that the skilled critic, based on many years of research, laid the foundation for the genre of the educational-biographical novel in Uzbek literary studies, and the features of the biographical method in this type of works are revealed. The necessity of studying the scientific heritage of the literary scholar Naim Karimov is substantiated through analysis and evidence.

Keywords: educational-biographical novel, genre, specificity, principle, biographical method, critic, feature, scientific heritage, evidence.



KIRISH (Introduction)

O'zbek adabiyotining zabardast vakillaridan biri, adabiyotshunoslikda biografik metod taraqqiyotini yangi bosqichga olib chiqqan adabiyotshunos olim Naim Karimovdir. Adabiyotshunos olim Suvon Meli aytganlaridek, " akademik Naim Karimov 20-asr O'zbek adabiyotining deyarli(shu so'z ham ortiqcha, shekilli) barcha siymolari haqida maqola yozgan, tadqiqotlar olib borgan.¹ Va bu tadqiqotlar natijasi o'laroq olim O'zbek adabiyotida yangi- ma'rifiy-biografik roman janriga asos soldi. Tarixiy romanlar adabiyotimizda ko'p ekanligiga qaramay ma'rifiy- biografik roman aynan yaratilmagan edi.

Asror Samad tomonidan Naim Karimovning "Mirtemir" ma'rifiy-biografik romanlariga yozilgan taqrizda qadimgi dunyo adabiyotida yaratilgan Plutarxning "Qiyosiy tarjimayi hol" asari, Tatsitning " Agrikolalar hayoti", " Svetoniyning " 12 Sezar hayoti" kitoblari, o'rta asrlarda avliyolar hayotiga bag'ishlab yozilgan Fariddin Attorning " Tazkirat ul- avliyo", Rabg'uziyning "Qisasu-l anbiyo", Alisher Navoiyning "Tarixi anbiyo va hukamo", "Xamsat-ul mutahayyirin", "Holati Sayyid Hasan Ardasher", " Holati Pahlavon Muhammad", "Majlis un-nafois", Faxriy Hirotiyning " Javohir ul-ajoyib" asarlari ehtimoliy ma'rifiy-biografik romanning debochalari sifatida ko'rsatiladi.²

USULLAR (Methods)

Adabiyotshunos olim bu janrga birdaniga asos solgani yo'q. U Usmon Nosir hayoti va ijodi yuzasidan uzoq yillar olib borgan tadqiqotlari, arxiv materiallari bilan ishlab yozgan tahlillari natijasida 1993-yilda "Usmon Nosir", 1994-yilda " Usmon Nosirning so'ngi kunlari" nomli kitoblari nashr etiladi. Avvaliga bu kitoblar janr sifatida nomlanmay, ularga "hayotiy lavhalari, hujjatlar, rivoyatlar" deya sharh yoziladi.

NATIJALAR (Results)

2022-yilda bu ikki kitob birlashtirib, sayqallanib "Usmon Nosir" ma'rifiy- biografik romani nashr etiladi. Ungacha ham olimning Maqsud Shayxzoda, Hamid Olimjon va Mirtemirga bag'ishlangan ma'rifiy- biografik romanlari, Cho'lponga bag'ishlangan ma'rifiy romani nashr etilgan. Cho'lpon ma'rifiy romanini o'qib tahlil qilgan adabiyotshunos, albatta, uning ham ma'rifiy- biografik roman darajasida yozilganini tasdiqlaydi.

Asarda o'zbek adabiyotining zabardast vakili, ulug' shoir, nosir, dramaturg, tarjimon,

¹ "Patriarx". Suvon Meli. "Til va adabiyot ta'limi" jurnali. 27.10.2025.

² Naim Karimov. "Mirtemir". Ma'rifiy- biografik roman. Meriyus. Toshkent.2012.



istiqlol kuychisi Cho'lponning kitobxon uchun qorong'u bo'lgan hayot sahifalarini arxiv materiallari, zamondoshlari va qarindosh-urug'i bilan suhbatlashish asosida qayta tiklangani, to'liq yoritib berilganiga guvoh bo'lamiz. Shunga ko'ra, mohiyatan bu asarni ham ma'rifiy-biografik romanlar qatoriga qo'shish mumkin.

MUHOKAMA (Discussion)

Yillar va izlanishlar sayqali olim uchun yangi imkoniyatlar darchasini ochar, borgan sari yangi janr takomil topib borar edi. Bu asarlar yaratilishining davriy ket-ma ketligini inobatga olsak, "Cho'lpon" ma'rifiy romani 2009-yilda nashr etiladi. Shundan so'ng bu yo'nalishda yaratilgan asarlarini adabiyotshunos ma'rifiy-biografik roman deb ataydi. Endi e'tiborimizni yana bir muhim nuqtaga qaratsak, olimning 1985-yilda yozilgan "Oybek" va "1990-yilda yozilgan "Oybek va Zarifa" kitoblari ham aynan shu yo'nalishda yozilgan. "Oybek" asarining "Mashhur o'zbek adibining hayoti va ijodidan lavhalar" izohi bilan nashr etilishi ham bunga dalildir. Umri davomida adabiyotshunoslik ilmiga salmoqli hissa qo'shgan adib umri yana davom etganida Oybek haqidagi kitoblarini birlashtirib, sayqallab yaxlit bir ma'rifiy-biografik roman nashr ettirgan bo'larmidi?

Olimning yozganlari, yaratganlari juda bisyor, ammo uning o'rganishga davlat etib ketgan ilmiy asoslari ham talaygina. Akademik Naim Karimov yigirmanchi asr adabiyotining zabardast vakillari Cho'lpon, Oybek, Maqsud Shayxzoda, Mirtemir, Hamid Olimjon, Usmon Nosir haqida olib borgan tadqiqotlari asosida nafaqat tarixiy haqiqatni tikladi, balki bu ijodkorlarning shaxsiyati, insoniy fazilatlari, dunyoqarashi, orzu-armonlarini, hayotiy maslagini o'quvchiga tanitdi.

Birgina "Maqsud Shayxzoda" ma'rifiy- biografik romanini olsak, bu asar qahramonlar nutqidan olingan hikoyalar tarzida yozilgan bo'lib, bu bizga ardoqli adibimiz O'tkir Hoshimov uslubini eslatadi.

" Kechki institut" qismida yuksak saviyasi, keng bilimi, betakror pedagogik mahoratidan so'z borsa, " ikki shogird hikoyasi" qismida insoniylik, bag'rikenglik xislatlari namoyon bo'ladi.

"Ikki shogird hikoyasi" da birinchi shogird Yusuf Shomansur Maqsud Shayxzodadan butun umriga yetadigan, jizzakilik, qiziqqonlik ni yengishiga sabab bo'lgan tarbiyani oladi. Maqsud Shayxzoda boshchilik qiladigan adabiyot to'garagida mashg'ulot vaqtida shogirdlar orasidan bir qiz kattaroq shoirlardan birining she'rini o'zlashtirib, o'z nomidan aytib beradi. Yusuf Shomansur jahli chiqib, shoirani ko'chirmakashlikda ayblab ketadi. Faylasuf ijodkor bu vaziyatdan shogirdini juda go'zal tarzda olib chiqib ketadi.

"- Shomansur akamning o'g'illari, siz unaqa dag'dag'a qilmang shoiramizga,- dedilar



domla yumshoqqina qilib. - Balki singlimiz bizni sinamoqchi bo'lganlar, shundaymi?³ Chuqur falsafiy tafakkur va ezgu insoniy qadriyatlarni o'z shaxsida mujassamlashtira olgan bu mohir ustoz ikkala shogirdini ham ranjitmasdan yo'lga soladi.

Xulosa (Conclusion)

Naim Karimov o'zbek adabiyotshunosligida biografik metodning asosiy rivojlanish yo'llarini belgilab berdi, tarixiy va badiiy materiallarni ilmiy asosda tahlil qilib, ma'rifiy-biografik roman janrini shakllantirdi. Uning ijodi nafaqat o'zbek adabiyoti tarixini yoritishda, balki kelajak tadqiqotchilar uchun ham metodologik asos sifatida xizmat qiladi. Shu sababli Karimovning ilmiy merosi va biografik metodga qo'shgan hissasi adabiyotshunoslikda bebaho ahamiyatga ega ekanligi ta'kidlanadi.

Naim Karimov ilmiy maktabi adabiyotshunoslar uchun biografik metod orqali tahlil qilinadigan har qanday manbalar uchun dasturilamal vazifasini bajaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Karimov, N. (1993). Usmon Nosir: hayotiy lavhalar, hujjatlar, rivoyatlar. Toshkent: Sharq nashriyoti.
- 2.Karimov, N. (1994). Usmon Nosirning so'nggi kunlari. Toshkent: Sharq nashriyoti.
- 3.Karimov, N. (2003). Cho'lpon: ma'rifiy roman. Toshkent: Sharq nashriyoti.
- 4.Karimov, N. (2012). Mirtemir: ma'rifiy-biografik roman (Asror Samad, tahr.). Toshkent: Meriyus nashriyoti.
- 5.Karimov, N. (2022). Usmon Nosir: ma'rifiy-biografik roman. Toshkent: Fan nashriyoti.
- 6.Karimov, N. (1985). Oybek: mashhur o'zbek adibining hayoti va ijodidan lavhalar. Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti.
- 7.Karimov, N. (1990). Oybek va Zarifa: muhabbat va sadoqat dostoni. Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti.
- 8.Meli, S. (2025, 27 oktyabr). Patriarx. Til va adabiyot ta'limi jurnali.
9. Naim Karimov. Maqsud Shayxzoda. Ma'rifiy-biografik roman."Sharq"nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati. Toshkent.2009. 221-b.

³ Naim Karimov. Maqsud Shayxzoda. Ma'rifiy-biografik roman."Sharq"nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati. Toshkent.2009. 221-b